

IXTISOSLASHTIRILGAN TIKUV MASHINALARIGA OID MAVZULARNI O'QITISHGA USLUBIY TAVSIYALAR

Orisheva Zuxra Xamidullayevna

A.Qodiriy nomidagi JDPI, Texnologik ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

e-mail:zuhra.orisheva79@mail.ru

Texnologiya darslarida tikuv mashinalariga oid mavzularni o'quvchilarga o'rgatib borish umumiy o'rta ta'lim maktablarining DTS va o'quv rejasi hamda Texnologiya fani bo'yicha uzluksiz ta'lim milliy o'quv dasturi (loyiha)ga asosan tizimli o'rgatib borilishi ko'rsatib o'tilgan. Xususan, 7-sinf o'quv dasturida Servis xizmati yo'nalishining Mashina, mexanizm, stanoklar va ulardan foydalanish bo'limini o'quvchilarga o'ratishda dars mashg'ulotlari olib borish uchun 6 soat vaqt ajratilgan. Bunda quyidagi mavzu va topshiriqlarni o'quvchilarga o'rgatish nazarda tutilgan:

***Mavzu:** Ixtisoslashtirilgan tikuv mashinalari. Ixtisoslashtirilgan tikuv mashinalarining tuzilishi va ishlash prinsipi. Parallel, zig-zag, mayda va yirik baxyaqator choklarni tikish texnologiyasi. Mashinada izma (petlya) tikish.*

***Amaliy mashg'ulot:** Parallel, zig-zag, mayda va yirik baxyaqator choklarni tikish.*

***Topshiriq:** Ixtisoslashtirilgan tikuv mashinalarining afzalliklari haqida ma'lumot berish.*

***Amaliy mashg'ulot:** Mashinada izma (petlya) tikish.*

***Topshiriq:** Yupqa va qalin gazlamaga petlya tikish.*

Ixtisoslashtirilgan tikuv mashinalariga oid darslarda o'quvchilarga quyidagi ma'lumotlar asosida mashg'ulotlar o'tkazish tavsiya etiladi:

Nazariy dars materiallari

“Chayka” tikuv mashinasi siniq bahyaqator hosil qilishda mashina ignasi bir yo'la vertikal va gorizontal harakatlar qiladi. Ya'ni igna, o'zining vertikal harakati davomida ma'lum masofaga og'ib gorizontal harakatlar ham qilishga

mo'ljallangan. Siniq bahyaqator 5 ta asosiy mexanizmlar (igna, moki, ip tortkich, tepki, surgich mexanizmlari) bilan birga qo'shimcha ignani og'diruvchi mexanizmni bir-biriga bog'liq harakatidan hosil bo'ladi. Maishiy mashinalarda bu bahyaqatorning chalishuvi moki orqali hosil bo'ladi.

“Chayka” tikuv mashinasi siniq bahyaqator ham tikadi. Bu bahyaqator kiyim choklarini sitilmaslik uchun yo'rmalash maqsadida qo'llanilishi, uchma–uch ulash choklari, bezakli qavishlar, kashta tikishlar, to'rlarni aplikatsiyalarini biriktirib tikish, bir va ikki marta bukib tikish, petlya yo'rmash, tugma chatish, yashirin bahyaqator yuritish, qo'sh igna yordamida parallel bahyaqatorlar yuritishi va boshqa ishlarni bajarishi mumkin. Bu chok ko'rinishi gazlama usti va ostida siniq shaklda (zig-zag) bo'ladi.

Bunday choklar tikuvchi maishiy mashinalar jumlasiga “Tula”, “Chayka” (Rossiya); “Lada” (Chexoslovakiya); “Veritas”, “Keller” (Germaniya) tikuv mashinalari kiradi.

Rossiyaning “Chayka” tikuv mashinasi bir necha marta takomillashtirilib, o'zining qulayligi, yetarli chidamliligi bilan o'zini oqlagan.



1-rasm. Zamonaviy tikuv mashinalaridan namunalar

Maishiy mashinalarning bunday to'g'ri bahya tikish bilan birga siniq bahya tikuvchi xillari hozirgi davrda rivojlantrilib Germaniyada "Pfaff-Singer", Yaponiyada "Brotxer", Xitoyda "Juita", Shvetsariyada "Bernina" firmalari tikuv mashinalari ishlab chiqarilmoqda. Ular bugungi kundagi zamonaviy tikuv mashinalari hisoblanib, qulay, yengil va yuqori sifatli chok tikuvchi mashinalar bo'lib, ko'plab imkoniyatlari bor. Ya'ni ustki va ostki iplarni taqish yo'llari qulay ishlangan, ip qirqish, naychaga ip o'rash, petlya yo'rmasida chegaralovchi moslamalari kabi boshqa maxsus tepkilar turlari kengayib ularni qo'llash ham qulay ishlangan. Shuningdek, siniq bahya asosida turli chiziqli kashtalar hosil qilish sonlari kengayib sifati oshirilgan (1-rasm).

Hozirgi davrda ko'plab elektronika qo'llanilgan, dasturlashtirilgan, mikro kompyuterli tikuv mashinalari ishlab chiqarilmoqda. Masalan, Shvetsiyaning "Xuskvarna" firmasida ishlab chiqarilgan mashinalar dastur asosida turli kashtalar tikadi, bezaklarni biriktirib tikadi, aplikatsiyalarni bezatib biriktiradi. Mashina turli moslamalarga ega bo'lib, murakkab operatsiyalarni bajarishda qulaylik yaratib mehnatni osonlashtiradi, ish sifatini oshiradi. Mashina ignasiga ip taqish moslamasiga, petlya, tugma o'lchamlarini sozlaydigan moslamaga, ip qirqish uchun qaychi moslamasiga hamda tikuv mashinasining tezligini o'zgartirib chegaralash imkoniyatiga egaligi bilan ajralib turadi.

Tugma qadaydigan tikuv mashinasining tezligi 1500 ayl/min. Bu tikuv mashinasi bitta tugmani 1 sekundda qadashligi amaliyotda ma'lum. Bir ish kunida tugma qadash mashinasida besh mingta tugma qadash imkoniyati bor.

Amaliy mashg'ulot uchun materiallar

Mavzu: Parallel, zig-zak, mayda va yirik baxya qator tikish.

Kerakli asbob va moslamalar: Tikuv mashinasi, naycha, naycha qalpog'i, ish qutichasi, mashina ignalari, katta va kichik otvyorkalar, qaychi, to'g'nog'ichlar, ombur, gazlama qoldiqlari, turli ranglarda va qalinlikdagi iplar, qotirma material.

Ishni bajarish tartibi:

1. Gulsiz (sidirg'a) gazlamadan ranglari, turlari, qalinligiga qarab tanlab, 20x20 o'lchamda namuna-ko'rgazma gazlamasini qaychi yordamida qirqib olinib, unga flizilin yopishtiriladi.

2. Ip ranglarini did bilan tanlab olinib, ostki va ustki iplarni taqiladi.

3. Tikuv mashina baxya rostlagich richagini eng katta baxya yirikligiga (qadamiga - 4 mm) qo'yiladi; so'ngra richak orqali siniq baxya kengligini eng katta kengligiga (5 mm) rostlanadi.

4. Avval sinov (qiytiq) gazlamasida tikib ko'rib, baxyaqatorlarning sifati tekshiriladi.

5. So'ngra namuna-ko'rgazmada parallel va zig-zak qator choklar tikiladi.

6. Bezak baxyaqatorlarning xilini baxya rostlagich bilan siniq baxya zichligini o'zgartirib ko'paytirish mumkin.

7. Bezak baxyaqatorlarning boshqa shakllari shu tartibda tikiladi.

8. Parallel baxyaqator tikish uchun avval 20x20 o'lchamdagi namunaga chizg'ich yordamida bitta to'g'ri chiziq chizib olinadi, uning ustidan yirik baxyaqator yuritib tikiladi. Keyingi choklar shu chokka parallel holda istalgan bir xil oraliqda tikib boriladi (2-rasm, a)

9. Parallel baxyaqator tikilgandek zig-zak baxyaqator tikish ishlari ham bajariladi (2-rasm, b)



2-rasm. Parallel va zig-zak baxya qator tikish

10. Namuna bezak baxyaqatorlar 20x20 o'lchamdagi namunalarga tikilib ko'rgazma albomiga bezatib yopishtiriladi

Mustaqil amaliy ish uchun topshiriq

To'g'ri va ko'zli izmalarni tikishni va ularni amalda bajarishni o'rganib kelish.

To'g'ri va ko'zli izmalarni tikishni amaliy ishlarda bajarish

*Jihozlar:*o'rganishga oid adabiyotlar, tikuv mashinasi, ish qutichasi, turli rangdagi va yo'g'onlikdagi standart iplar, gazlama bo'laklari, qotirma materiallar, qaychi va hakoza.

Xulosa shuki, yuqorida keltirilgan Ixtisoslashtirilgan tikuv mashinalari yuzasidan berilgan ma'lumotlardan mashg'ulotlarda foydalanib borish o'quvchilarning mavzu yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarining samarali shakllanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi "Xalq talimini rivojlantirishga oid qoshimcha chora-tadbirlar to'g'risida PQ-241-sonli qarori
2. Muslimov N. A. Sharipov Sh.S. Qo'ysinov O. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. Darslik. Toshkent 2014, 449 bet .
3. Olimov K. Tikuvchilik korxonalarini jihozlari va uskunalari. Toshkent.: 2002 y.
4. Pankratova V.A.Tikuvchilikda ishlab chiqarish ta'limi asoslari. Toshkent O'qituvchi. 1997 y.
5. Sharipov SH.S. va b. Mehnat ta'limi (Texnologiya) 7-sinf uchun darslik.Toshkent. Sharq . 2017
6. Truxanova A.T.Tikuvchilik texnologiyasi asoslari.Toshkent.O'qituvchi. 1996 y